ANDIJON VILOYATIDA
O'RTA MAXSUS VA KASB-HUNAR TA'LIM TIZIMI

2019-2020 o'quv yili boshiga

Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qoygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohatlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohatchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oily o'quv yurtigacha-ta'limning barcha bo'g'nlarini isloh qilishni boshladik.

SH.M.Mirziyoev

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassalari tizimi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv medodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan iborat.

Andijon viloyatida ham yosh avlodni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalashga alohida etibor qaratilmoqda. 2019-2020 o'quv yili boshiga viloyat bo'yicha 87 ta orta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassalari faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 82 tasi kasb-hunar kollejlari, qolgan 5 tasini akademik litseylardan iborat.



Ma'lumot uchun:

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari -egallagan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim beradi.

2019-2020 o’quv yili boshida Andijon viloyati bo’yicha 82 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat ko’satgan. Ularda ta’lim olayotgan o’quvchilar soni 19314 nafarni tashkil etdi. Jami o’quvchilarning 12241 nafari yoki 63,4% qizlardan iborat.

Ma’lumot uchun :

Kasb-hunar kolleji – o’quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo’yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan 3 yillik o’rta kasb-hunar o’quv yurtidir.

Kasb-hunar kollejlaridagi 19314 nafar o’quvcilarning 43,7 % - 19 va undan katta yoshdagi o’quvchilar, 25,8 % - 18 yoshdagi o’quvchilar, 24,7 % - 17 yoshdagi o’quvchilar, hamda 5,8 % - 16 va undan kichik yoshdagi o’quvchilardan iborat.



2019-2020 o’quv yili uchun viloyatdagi kasb-hunar kollejlariga 152 nafar o’quvchi qabul qilindi. 2019 yilda kasb-hunar kollelarini 42051 nafar o’quvchilar bitirdilar. Ularning 18652 nafari yoki 44,4 % ni qizlar tashkil etadi. 2020 yilda ushbu ta’lim muassasalarini 19134 nafar o’quvcilar bitirishi kutilmoqda.



Ma'lumot uchun:

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq:

- akademik litseylar uchun - ta'lim yo'nalishi ixtisosligi bo'yicha fanlar;

- kasb-hunar kollejlari uchun – o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi kasblari va muraxassisliklar tayyorlash yo'nalishlari Klassifikatoriga muvofiq malaka darajasi, egallagan kasb va unga qo'shimcha mutaxassisliklar ko'rsatilgan holda o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi ***“Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida***” gi farmoniga muvofiq 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta ta’lim tizimi, uzluksiz ravishda 11 yillik ta’lim negizida amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning tashabbuslari bilan ko‘plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar hamda keng jamoatchilik takliflarini o‘rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o‘rta ta’lim tizimi qayta tiklandi. Shu sababdan 2019-2020 o’quv yilida faoliyat korsatgan kasb-hunar kollejlari soni 87 tani tashkil etdi, hamda ularning soni o’tgan o’quv yiliga nisbatan 33 taga kamaygan.

Andijon viloyatidagi kasb-hunar kollejlari soni, ***(birlik)***



2019-2020 o’quv yili boshida Andijon viloyatidagi kasb-hunar kollejlarida 1398 nafar (o’rindoshlarsiz) pedagog-xodimlar faoliyat ko’rsatgan. Ulardan 774 nafari ayollardan iborat. Ularning 1287 nafari (92,1%) va qolgan 111 nafari (7,9%) o’rta-maxsus ma’lumotga ega.

2019-2020 o’quv yilida Andijon viloyatida 5 ta akademik litsey faoliyat ko’rsadi. Ulardagi jami o’quvchilar soni 2141 nafarni tashkil etadi. Jami o’quvchilarning 725 nafari yoki 33,9 % qizlardan iborat.

Ma’lumot uchun:

Akademik litsey – o’quvchilarning intellectual qobiliyatlarini jadal o’stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo’naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan 3 yillik o’rta maxsus o’quv yurtidir.



Yangi o’quv yilida viloyatdagi akademik litseylarga jami 1052 nafar o’quvcilar qabul qilindi. Ularning 356 nafari yoki 33,8 % qizlar tashkil qiladi.

2019 yilda Andijon viloyatidagi akademik litseylarni 3652 o’quvchilar bitirdilar. Ularning 1362 nafari yoki 37,3 % qizlardan iborat. 2020 yilda 904 nafar o’quvchilarning bitirishi kutilmoqda.

Andijon viloyati bo’yicha 2019 yilda akademik litseylarni bitirgan o’quvchilar soni (kishi hisobida)



O’quv yili boshiga jami 2141 nafar akademik litsey o’quvchilarining yoshi boyicha taqsimlanishi quyidagicha: 15 va undan kichik yoshdagi o’quvchilar - 530 nafar, 16 yoshli o’quvchilar - 1025 nafar, 17 yoshli o’quvchilar – 473 nafar, 18 yoshli o’quvchilar - 107 nafar; 19 va undan yuqori yoshdagi o’quvchilar – 6 nafar

2019-2020 o’quv yili boshida viloyatdagi akademik litseylardagi jami pedagog xodimlar soni 204 (o’rindoshlarsiz) nafarni tashkil etdi. Ulardan 110 nafari ayollardan iborat. O’qituvchlarning barchasi oily ma’lumotli mutaxassis hisoblanadi. Ulardan 30 nafari chet tili, 11 nafari informatika fani va qolgan 163 nafari boshqa fan o’qituvchilaridir.



Akademik litseylarda 1909 nafar (89,2 %) o’quvchilar o’zbek tilida, hamda 232 nafar (10,8 %) o’quvchilar rus tilida ta’lim olmoqdalar.

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo’limi

Aloqa telefoni : (74-230-28-69)